



SHIKASTLANISHLAR

Ibodova Shahnoza Namozovna

Zangiota Abu Ali ibni Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi kasbiy fanlar kafedrasining Katta o'qituvchisi

Annotatsiya: shikastlanishlar tushunchasi- bu skeletning biron bir qismining yaxlitligini to'liq yoki to'liq yo'q qilishdir. Bu holat kuchli zarba, shikastlangan joyga ortiqcha yuk tushishi natijasida yuzaga keladi.

KIRISH

Suyak sinishi - shikastlanish oqibatida suyak butunligining buzilishiga olib keladi. Suyak sinishi travmatik va patologik turlarga bo'linadi. Travmatik Suyak sinishi sog'lom suyakka to'satdan kuchli mexanik kuch ta'sir etishi natijasida ro'y beradi. Patologik Suyak sinishi esa biror kasallik (mas, [suyak sili](#), [suyak o'smasi](#), [osteomiyelit](#), [osteoporoz](#) va hokazo.) oqibatida mo'rt bo'lib qolgan suyakka kuchiz tashqi ta'sir tufayli yuzaga keladi. Suyak sinishi yopiq yoki ochiq bo'ladi. Yopiq sinishda singan joy sohasidagi [teri](#) zararlanmaydi, ochiq sinishda esa teri yirtilib, suyak bo'laklari teridan tashqariga chiqib qoladi. Ochiq Suyak sinishi yopig'iga nisbatan xavfliroq hisoblanadi, chunki teridagi yirtilgan [yara](#) orqali [infeksiya](#) singan sohaga kirib qolishi va [yiringlashga](#) sabab bo'ladi. Ochiq suyak sinishi, asosan, [harbiy qurollar](#) ta'siri va [yo'l transport halokati](#) tufayli yuzaga keladi.

Singan suyaklar soniga ko'ra suyak sinishilari monotravma (bitta suyak sinishi) va politravma (bir nechta suyak sinishi)larga bo'linadi shikaslanish nechta bo'lakka bo'linishiga qarab oddiy (suyak ikki bo'lakka bo'linsa) va murakkab (suyak bir necha bo'lakka bo'linsa) Suyak sinishi shunga qarab bo'linadi. Suyak bo'laklarining shakliga ko'ra Suyak sinishilari ko'ndalang, uzunasiga, qiya, vintsimon, Tsimon, Vsimon, maydalangan bo'ladi. Singan suyak bo'laklari joyidan siljimasligi yoki muskullar qisqarishi natijasida siljib ketishi mumkin bo'ladi. suyak sinishining faqat bolalarga xos bo'lgan "novdasimon sinish" va epifizeoliz turlari ham mavjud.

ASOSIY QISM

Suyak bo'laklari atrofdagi qon tomirlari va nerv tolalarini jarohatlashi mumkin. Bir nechta mayda suyaklar yoki bitta yirik suyak (mas, son suyagi, chanoq suyagi) singanda ichki va tashqi qon oqishi tufayli travmatik shok vujudga olib keladi. Suyak sinishining tashqi ko'rinishdan absolyut (suyak kaltalashuvi, qiyshayishi, sinish sohasida kirtillash) va nisbiy (shish, og'riq, funksiyaning



buzilishi) belgilari ko‘zga tashlanadi.

Seni davolashning konservativ (operatsiyasiz) va operativ usullari ham mavjud. Konservativ davolash usullari (qo‘lda tortib yoki tana tortimi yordamida suyak bo‘laklarini to‘g‘rilash, gips bog‘lam qo‘yish), asosan, oddiy Suyak sinishlarida qo‘llanadi. Murakkab Suyak sinishlarida esa aksariyat hollarda operatsiya qilinadi. Operativ davolash usullaridan suyak bo‘laklarini metall plastinka, shtiftlar, burama mix va tashqi fiksatsiya apparatlari (mas, Ilizarov apparati) va hokazo bilan mahkamlash keng tarqalgan.

Suyak bo‘laklarining bitishi singan sohada [suyak qadog‘i](#) hosil bo‘lishiga asoslangan murakkab biologik jarayondir. Bitish muddati qaysi suyak singanligi, suyak bo‘laklarining va atrof yumshoq to‘qimalarining holati hamda organizmning umumiy ahvoriga bog‘liq. Mayda va ko‘mik suyaklar yirik va uzun suyaklarga nisbatan, bolalar suyagi esa kattalar suyagiga nisbatan tezroq bitadi. Qariyalarda suyak bitishi sekinroq kechishi mumkin.

Suyagi singan joyini tezda mavjud narsalar (karton, faner, taxtacha va boshqalar) yoki shina qo‘yib, ustidan doka, ro‘mol yoki bint bilan siqib bog‘lash va bemorni zudlik bilan tegishli kasalxonaga olib borish zarur.

XULOSA

Sinishlar - Bu travmatik ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan suyaklarning yaxlitligini buzish yoki buzish. Bu eng keng tarqalgan jarohatlardan biridir. Aksariyat odamlar hayoti davomida bir yoki bir nechta sinishlarni boshdan kechirishadi. Barcha holatlarning 80% da yoriqlar quvurli suyaklar bilan sodir bo'ladi. Bunday jarohatlar paytida nafaqat suyaklar, balki ularni o'rab turgan to'qimalar ham azoblanadi. Bemorlarda yaqin atrofdagi mushaklarning shikastlanishi, shuningdek, qon tomirlari va asab tugunlarining siqilishi yoki yorilishi kuzatiladi. Yorilishlar bir nechta va bitta bo'lishi mumkin, shuningdek, yaqin atrofdagi to'qimalarning shikastlanishi bilan murakkablashishi mumkin. . Shikastli xarakterdagi va patologiyalar natijasida kelib chiqqan suyak jarohatlari mavjud.

Shuningdek, ko‘rinishga qarab sinishlarning tasnifi ham mavjud (ochiq va yopiq), lokalizatsiya bo'yicha, bo'g'imlarga nisbatan, sinish chizig'i bo'ylab va shikastlanish xususiyatiga qarab, sinish chizig'ining tarqalishi bo'yicha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Harbiy dala jarrohligi-Tibbiyot oliygohlari uchun o‘quv qo‘llanma,- M.Kariyev, R.Alimov, A.Saidov.



2. A.J.Hamrayev, A.V.Alimov, T.S.A'zamxo'jayev, Xirurgiya va reonimatsiya asoslari. T.Ibn Sino -302 bet
3. E.I.Qosimov, M.Z.Zoxidova, Sh.Ya.Zokirxo'jayev Xamshiralik ishi asoslari.O'quv qo'llanma. T. -128bet
4. B.T.Tursunov. Xirurgik bemorlar parvarishi . T. Ibn sino nomidagi nashriyot-92 bet